



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№8(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 196 sahifa,
24-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Oliy badiiy-pedagogik ta'limda an'anaviy ustoz-shogird an'anasi va innovatsion klaster yondashuvi integratsiyasining metodologik asoslari	10
Sultonov Xaytboy Eraliyevich	
Ta'lim klasteri sharoitida bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi	14
Xudoyberdiyeva Yulduz Xayrullo qizi	
Ta'lim jarayonida raqamli platformalar va dasturiy ta'minotdan foydalanish pedagogik muammo sifatida....	19
Tengelbayeva Dinora Muratovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini ekologik ta'lim va tarbiyalashning muammo va yechimlari.....	25
Abduraxmonova Muqaddas Oblokulovna	
Axborotlashgan ta'lim muhitida telematika texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari va ularning talaba shaxsini rivojlanishidagi o'rni.....	30
Botiraliyev Dildorbek Muzaffar o'g'li	
Mehnat migratsiyasi fenomeni va oila dialektikasining pedagogik aspektlari: translokallik sharoitida farzand tarbiyasi va "intelektual transfer" mediatsiyasi.....	34
K. B. Numanov	
Maktab rahbarlarini karyera pog'onalari asosida tayyorlash tizimini takomillashtirishning ilmiy-amaliy asoslari	38
Ismailov Abduvali Abdumalikovich	
CEFR B1 mezonlari asosida 10 va 11-sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishda ijodiy topshiriqlarni loyihalash metodikasi.....	45
Ergasheva Feruza Davlatali qizi	
Talabalarda raqamli toliqish darajasi va unga ta'sir etuvchi omillarning tahlili	48
Xamdanova Muazzamxon Xabibullo qizi	
Metakognitiv kompetentlikning pedagogik mohiyati va raqamli ta'lim muhitida uni rivojlantirishning nazariy asoslari	52
Mamatmurotova Muhlis Kamol qizi	
Maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tish davrida bolalarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishning uzluksiz metodikasi	59
Otabayeva Muazzam Abdumajidovna	
Ishsiz ayollarda shaxsiylik va emotsional xususiyatlarni o'rganishning nazariy-metodologik asoslari	63
Jurayeva Shaxnoza Saatmuradovna	
Kasaba uyushmalari xodimlarida tashabbuskorlik va yetakchilik xususiyatlarini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari	69
Sharipov Hayotjon Safarovich	
"Muqobil energiya manbalari" fanini mustaqil ta'lim asosida o'qitishning o'quv-metodik ta'minotini ishlab chiqish	75
Abduqahhorova Munajat Abdulxafiz qizi	
"Elektr ta'minoti" fanini o'qitishga mos yangi interfaol metod ishlab chiqish	79
Baratova Madinaxon Paxridinovna	
"Muqobil energiya manbalari" fanini o'qitish metodikasini kompetensiyaviy va raqamli yondashuvlar asosida takomillashtirish	83
Jumayeva Farzona Behzodjon qizi	
Oilada bolalarning emotsional rivojlanishining psixologik determinantlari	87
Nurmatova Muxayyo Abdumalikovna	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik tayyorlashda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish modelining samaradorligi.....	92
Xudayqulova Fazilat Bo'riyevna	




Махалля как гуманистическая воспитательная экосистема: социально-педагогические механизмы модернизации в новом Узбекистане	97
Фадлиева Амина Ильхамовна	
Talabalarda ijtimoiy mas'uliyat hissining psixologik mazmuni, tuzilishi va funksional xususiyatlari	102
Jumaniyozov Yunus Shodurdi o'g'li	
Adabiyot ta'limida immersiv texnologiyalardan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari	112
Umarov Mirzohid Baxromjon o'g'li	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarining tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik omillari	116
Xasanov Javohir Muxtorovich	
Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda axborot texnologiyalari va hamkorlikdagi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	125
Malikova Madina Abduraxmon qizi	
Pedagogical and Methodological Possibilities for Developing Students' Critical Thinking Competence in Teaching English Based on the "Project-Based Learning" Approach	129
Berdiyeva Shakhnoza Kholmakhammatovna	
Chekka hisoblash texnologiyasi yordamida aqlli mehmonxonada real-vaqt kayfiyat aniqlash va IoT qurilmalarini avtomatik boshqarish tizimi: Smart mood	132
Choryorqulov G'iyos Husan o'g'li, Botirova Mashhura Tulqin qizi	
Developing Academic Writing Skills Through Digital Media Tools	137
Tog'ayeva Muattar Bahodir qizi	
Xotin-qizlarda emotsional defitsit va nikohdan tashqari munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	144
Beknazarova Nigina Zarip qizi	
Sun'iy intellekt: madaniy vositachimi yoki madaniy "darvozabon"mi? chet tili o'qituvchilarini tayyorlash uchun tanqidiy nazariy asos	148
Jakbarova Nasibaxon Po'latjonovna	
Talabalarda impostor fenomeni shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarning psixologik tadqiqotlarda o'rganilganlik holati	153
Kamilova Gulzoda	
Pedagogik innovatsiyalar va raqamli transformatsiya	157
Ahmedova Nilufar Farxodovna, Mamatqulova Dildora Farxodovna	
Inklyuziv ta'lim muhitida interfaol metodlar orqali o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish	161
Shukurullayeva Madina	
Jismoniy tarbiya va sport ta'lim muassasalarida hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashning pedagogik va me'yoriy-huquqiy asoslari	168
Ahmedov Akrom Abzalovich	
The Relationship Between Social Media Use for English Language Learning, Student Perceptions, and Learning Outcomes: Evidence from University Students in Uzbekistan	174
Akhad Akhmedov	
Tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning tashkiliy – iqtisodiy mexanizmlari (Namangan viloyati misolida) ..	177
Boyutayeva Mamura Uroyimovna	
Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish dolzarb muammo sifatida	183
Mirxaliqov Bobur Zikrilloevich	
Sharq va G'arb pedagogika tarixidagi ma'naviy tarbiya va axloqiy qadriyatlar	188
Qodirova Nigora Farhodovna	
Sport gimnastikasining sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi mexanizmlari va kompleks samaralari: tizimli adabiyotlar tahlili	193
Sharapov Atabek Gayrat uli	



PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA



Ahmedova Nilufar Farxodovna
Qarshi davlat texnika universiteti dotsenti



Mamatqulova Dildora Farxodovna
Qarshi davlat texnika universiteti Ilmiy tadqiqotlar,
innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlarni
tayyorlash bo'limi uslubchisi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada pedagogik innovatsiyalar va ta'lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari chuqur tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar ta'lim sifatini oshirish, o'quv jarayonini shaxsiylashtirish, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish va o'quvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirishda muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi. O'zbekiston ta'lim tizimida "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi asosida amalga oshirilayotgan islohotlar xalqaro tajribalar bilan solishtirilib, ularning samaradorligi baholanadi. Maqolada mavjud muammolar - internet infratuzilmasining yetarli emasligi, o'qituvchilarning raqamli ko'nikmalaridagi kamchiliklar - ko'rsatilib, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari pedagogik innovatsiyalarni keng joriy etish va ta'lim tizimini global raqamli standartlarga moslashtirish zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: Pedagogik innovatsiyalar, raqamli transformatsiya, ta'lim tizimi, axborot texnologiyalari, raqamli kompetensiya, masofaviy ta'lim, STEAM.

Abstract: This scientific article provides an in-depth analysis of pedagogical innovations and the processes of digital transformation in the education system. Digital technologies are considered as a crucial factor in improving the quality of education, personalizing the learning process, developing teachers' digital competencies, and fostering creative thinking among students. In Uzbekistan's education system, reforms implemented under the "Digital Uzbekistan - 2030" strategy are compared with international practices, and their effectiveness is evaluated. The article highlights existing challenges - insufficient internet infrastructure and gaps in teachers' digital skills - and proposes solutions to overcome them. The research results justify the need for widespread implementation of pedagogical innovations and adaptation of the education system to global digital standards.

Key words: Pedagogical innovations, digital transformation, education system, information technologies, digital competence, distance education, STEAM.

Аннотация: В данной научной статье подробно анализируются педагогические инновации и процессы цифровой трансформации в системе образования. Цифровые технологии рассматриваются как важный фактор повышения качества образования, персонализации учебного процесса, развития цифровых компетенций преподавателей и формирования креативного мышления у обучающихся. В системе образования Узбекистана реформы, реализуемые в рамках стратегии "Цифровой Узбекистан - 2030", сопоставляются с международным опытом, и оценивается их эффективность. В статье обозначены существующие проблемы - недостаточность интернет-инфраструктуры, пробелы в цифровых навыках преподавателей - и предложены пути их решения. Результаты исследования обосновывают необходимость широкого внедрения педагогических инноваций и адаптации системы образования к глобальным цифровым стандартам.

Ключевые слова: Педагогические инновации, цифровая трансформация, система образования, информационные технологии, цифровая компетентность, дистанционное образование, STEAM.

KIRISH

XXI asrda ta'lim tizimi global raqamli o'zgarishlar ta'sirida tubdan yangilanmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim jarayonini tashkil etishning an'anaviy usullarini qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Pedagogik innovatsiyalar ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish hamda zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli transformatsiya esa ta'limni yangi bosqichga olib chiqib, uning ochiqqligi, moslashuvchanligi va shaxsiylashtirilishini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham ta'limni raqamlashtirish va innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi doirasida ta'lim sohasida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, elektron darsliklar va raqamli kutubxonalarni rivojlantirish, masofaviy ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish hamda pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan.

Pedagogik innovatsiyalarni raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning bilim olish jarayonini shaxsiylashtirish va o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun muhim imkoniyat yaratadi. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya jarayonida internet infratuzilmasining yetarli emasligi, pedagoglarning raqamli kompetensiyalaridagi farqlar hamda o'quvchilarning texnologiyaga haddan tashqari bog'lanib qolishi kabi muammolar ham mavjud.

Tadqiqotning maqsadi pedagogik innovatsiyalar va raqamli transformatsiyaning zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rnini aniqlash, O'zbekiston tajribasini xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlil qilish hamda mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot obyekti - ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llash jarayoni. Tadqiqot predmeti esa pedagogik innovatsiyalar va raqamli transformatsiyaning ta'lim sifatiga ta'siridir. Tadqiqotning ilmiy yangiligi O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan raqamli islohotlarni AQSh, Yevropa Ittifoqi va Janubiy Koreya tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilish orqali ularning asosiy imkoniyatlari va muammolarini aniqlashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik innovatsiyalar ta'lim jarayonini takomillashtirishga qaratilgan yangi metodlar, texnologiyalar, shakllar va yondashuvlar majmuasi sifatida talqin qilinadi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda innovatsion ta'lim o'quvchini ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish, uning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Pedagogik innovatsiyalarni nazariy jihatdan izohlashda konstruktivizm muhim yondashuvlardan biri hisoblanadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, o'quvchi bilimni tayyor shaklda qabul qiluvchi emas, balki uni mustaqil faoliyat, tajriba va o'zaro hamkorlik orqali shakllantiruvchi subyekt hisoblanadi. Bunda o'qituvchi bilimning yagona manbai sifatida emas, balki o'quvchining ta'lim olish faoliyatini yo'naltiruvchi pedagog sifatida namoyon bo'ladi. Raqamli texnologiyalar esa izlanish, hamkorlik, axborot almashinuvi va amaliy faoliyat uchun qo'shimcha imkoniyat yaratadi.

Kognitiv yondashuvda raqamli texnologiyalarning o'quvchilarning axborotni qabul qilish, qayta ishlash, saqlash va undan foydalanish jarayonlariga ta'siri muhim o'rin egallaydi. Multimedia, interaktiv topshiriqlar va vizual materiallardan foydalanish murakkab axborotni o'zlashtirishni yengillashtirishi mumkin. Shu bilan birga, raqamli vositalardan haddan tashqari foydalanish diqqatning chalg'ishi va texnologiyaga qaramlik kabi muammolarni keltirib chiqarishi ehtimoli mavjud. Pedagogik adabiyotlarda gamifikatsiya, STEAM va loyiha asosida o'qitish kabi innovatsion metodlar ham keng yoritilgan. Gamifikatsiya o'quv jarayoniga ball, reyting, mukofot va interaktiv topshiriqlar kabi o'yin elementlarini kiritish orqali o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. STEAM yondashuvi fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikaning integratsiyasiga asoslanadi. Mazkur yondashuv o'quvchilarda kompleks fikrlash, ijodkorlik va amaliy muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Loyiha asosida o'qitish esa o'quvchilarni real hayotiy muammolarni hal qilish jarayoniga jalb etadi. Mazkur metod mustaqil fikrlash, tadqiqotchilik, jamoada ishlash va mas'uliyatni shakllantirish uchun qulay pedagogik muhit yaratadi.

Raqamli transformatsiya masalasida xalqaro tajriba ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. AQShda Khan Academy va Coursera kabi ta'lim platformalari raqamli va masofaviy ta'limning ommalashishiga katta hissa qo'shgan. Yevropa Ittifoqida "Digital Education Action Plan" orqali raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish va ta'lim tizimini texnologik jihatdan modernizatsiya qilishga e'tibor qaratilgan. Janubiy Koreyada "Smart School" konsepsiyasi asosida maktablarning raqamli infratuzilmasini rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishga ustuvor ahamiyat berilgan. O'zbekiston ta'lim tizimida ham raqamli texnologiyalar va innovatsion metodlarni joriy etish jarayoni bosqichma-bosqich rivojlanmoqda. Elektron darsliklar, raqamli kutubxonalar, masofaviy ta'lim tizimlari va STEAM yo'nalishlarining rivojlanishi pedagogik innovatsiyalar uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot pedagogik innovatsiyalar va raqamli transformatsiyaning ta'lim tizimidagi o'rnini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda nazariy, qiyosiy va tizimli tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini konstruktivizm, kognitiv yondashuv va innovatsion ta'lim modeli tashkil etdi. Mazkur yondashuvlar orqali raqamli texnologiyalarning o'quvchilarning bilim olish faoliyati, ijodiy fikrlashi va mustaqil ta'lim olishiga ta'siri tahlil qilindi. Tadqiqot davomida pedagogik innovatsiyalar va raqamli transformatsiyaga oid ilmiy adabiyotlar, strategik hujjatlar hamda xalqaro tajribalar o'rganildi. Shuningdek, O'zbekiston tajribasi AQSh, Yevropa Ittifoqi va Janubiy Koreyada amalga oshirilayotgan raqamli ta'lim modellari bilan qiyoslandi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- nazariy tahlil - pedagogik innovatsiyalar va raqamli transformatsiyaning mazmun-mohiyatini aniqlash;
- qiyosiy tahlil - O'zbekiston tajribasini xorijiy davlatlar tajribasi bilan solishtirish;
- tizimli yondashuv - raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayonining turli tarkibiy qismlariga ta'sirini o'rganish;
- umumlashtirish - mavjud ilmiy qarashlar va amaliy tajribalar asosida xulosalar shakllantirish.

Tahlil jarayonida ta'lim sifati, o'quv jarayonini shaxsiylashtirish, o'quvchilarning motivatsiyasi, kreativ va tanqidiy fikrlashi hamda o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalari asosiy mezonlar sifatida belgilandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari pedagogik innovatsiyalar va raqamli transformatsiya o'zaro chambarchas bog'liq jarayonlar ekanligini ko'rsatdi. Raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga joriy etilishi yangi pedagogik metodlardan samarali foydalanish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Biroq texnologiyaning mavjudligi o'z-o'zidan yuqori ta'lim sifatini kafolatlamaydi. Uning samaradorligi pedagogik maqsad va metodlar bilan to'g'ri uyg'unlashtirilishiga bog'liq. Elektron darsliklar va raqamli kutubxonalar o'quvchilarning ta'lim resurslariga tezkor kirishini ta'minlaydi. Multimedia elementlari, videolar, animatsiyalar va interaktiv topshiriqlardan foydalanish mavzularni tushunishni osonlashtiradi. Bundan tashqari, o'quvchilar o'zlariga qulay vaqtda mustaqil ravishda qo'shimcha materiallarni o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Masofaviy ta'lim platformalari o'quv jarayonini tashkil etish, topshiriqlarni yuborish, baholash va o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida fikr almashish jarayonlarini soddalashtiradi. Moodle, Google Classroom va Kundalik.com kabi platformalardan foydalanish ta'lim jarayonining raqamli muhitda tashkil etilishiga imkon beradi. Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar, ayniqsa, tabiiy va texnik fanlarni o'qitishda muhim ahamiyatga ega. Ular real laboratoriya sharoitida bajarish murakkab yoki xavfli bo'lgan tajribalarni virtual muhitda amalga oshirish imkonini beradi. Natijada o'quvchilar nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog'lash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish esa ta'limni shaxsiylashtirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. O'quvchining bilim darajasi, o'zlashtirish sur'ati va xatolarini tahlil qilish orqali individual topshiriqlar va tavsiyalar ishlab chiqish mumkin. Shu bilan birga, sun'iy intellektidan foydalanishda akademik halollik, mustaqil fikrlash va pedagogik nazorat masalalariga alohida e'tibor qaratish zarur.

Pedagogik innovatsiyalar orasida gamifikatsiya alohida ahamiyatga ega. O'yin elementlari, ball va reyting tizimlaridan foydalanish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirishi mumkin. Biroq gamifikatsiya faqat o'yin-kulgi vositasi emas, balki aniq ta'limiy maqsadga xizmat qiladigan metod sifatida qo'llanilishi lozim. STEAM yondashuvi esa fanlararo integratsiyani ta'minlab, o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy vazifalar bilan bog'lashga yordam beradi. O'quvchilar bir vaqtning o'zida ilmiy, texnik va ijodiy yondashuvlardan foydalanib, muayyan muammoga yechim izlaydilar. Bu esa kreativ fikrlash va innovatsion yondashuvni rivojlantiradi.

Loyiha asosida o'qitish metodining samaradorligi ham o'quvchilarning mustaqil faoliyatiga bog'liq. Loyiha davomida o'quvchilar muammoni aniqlaydi, ma'lumot izlaydi, uni tahlil qiladi, yechim ishlab chiqadi va natijani taqdim etadi. Shu sababli mazkur metod o'quvchilarda nafaqat fan bo'yicha bilim, balki jamoada ishlash, muloqot qilish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

O'zbekiston tajribasini xalqaro tajriba bilan qiyoslash shuni ko'rsatadiki, rivojlangan ta'lim tizimlarida raqamlashtirish faqat texnik vositalarni joriy etish bilan cheklanmaydi. AQShda raqamli ta'lim platformalari va EdTech xizmatlari ta'limning moslashuvchanligini oshirishga xizmat qilmoqda. Yevropa Ittifoqida raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish davlat ta'lim siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Janubiy Koreyada esa maktablarning raqamli infratuzilmasini rivojlantirish va "Smart School" modelini shakllantirishga katta e'tibor berilgan. O'zbekistonda "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi asosida ta'limni raqamlashtirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Elektron ta'lim resurslarini yaratish, masofaviy ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish, pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish va innovatsion ta'lim metodlarini joriy etish mazkur jarayonning asosiy yo'nalishlarini tashkil etadi.



Biroq tahlil natijasida raqamli transformatsiyani rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi bir qator muammolar ham aniqlandi.

Birinchi muammo - internet infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi. Hududlar o'rtasidagi texnik imkoniyatlar farqi raqamli ta'limdan teng foydalanish imkoniyatlariga ta'sir qilishi mumkin.

Ikkinchi muammo - o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish zarurati. Zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish uchun pedagog nafaqat texnik ko'nikmalarga, balki raqamli pedagogika metodlariga ham ega bo'lishi kerak.

Uchinchi muammo - o'quvchilarning texnologiyaga haddan tashqari bog'lanib qolishi. Raqamli vositalardan me'yoridan ortiq foydalanish diqqatning susayishi, jonli muloqotning kamayishi va mustaqil fikrlash jarayonining zaiflashishiga olib kelishi mumkin.

Shu sababli raqamli transformatsiya jarayonida texnologik vositalar bilan an'anaviy pedagogik metodlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash muhimdir. Raqamli texnologiyalar o'qituvchining o'rmini to'liq egallashi emas, balki uning pedagogik faoliyatini qo'llab-quvvatlashi va ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishi kerak. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ta'limning samarali raqamli transformatsiyasi uchta asosiy omilga bog'liq: zamonaviy raqamli infratuzilma, raqamli kompetensiyaga ega pedagoglar va pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan innovatsion ta'lim jarayoni. Ushbu omillarning o'zaro uyg'unligi ta'lim sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Pedagogik innovatsiyalar va raqamli transformatsiya zamonaviy ta'lim tizimining rivojlanishida strategik ahamiyatga ega. Tadqiqot davomida gamifikatsiya, STEAM, loyiha asosida o'qitish, elektron darsliklar, masofaviy ta'lim platformalari, virtual laboratoriyalar va sun'iy intellekt kabi vositalarning ta'lim jarayonini takomillashtirishdagi imkoniyatlari tahlil qilindi. Tahlil natijalari innovatsion pedagogik metodlar o'quvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlashini, mustaqil ta'lim olish hamda muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatdi. Raqamli texnologiyalar esa mazkur metodlarni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratib, ta'limni yanada moslashuvchan va shaxsiylashtirilgan shaklda tashkil etishga yordam beradi.

O'zbekiston tajribasi "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi doirasida ta'limni raqamlashtirish jarayoni izchil rivojlanayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, internet infratuzilmasidagi mavjud tafovutlar, pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini yanada rivojlantirish zarurati va o'quvchilarning texnologiyaga haddan tashqari bog'lanib qolishi kabi muammolarni bartaraf etish muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Mazkur muammolarni hal etish uchun pedagoglarni raqamli pedagogika bo'yicha muntazam qayta tayyorlash, hududlarda raqamli infratuzilmani rivojlantirish, innovatsion ta'lim loyihalarini qo'llab-quvvatlash, xalqaro tajriba almashinuvini kengaytirish hamda sun'iy intellekt va boshqa zamonaviy texnologiyalardan mas'uliyatli foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, pedagogik innovatsiyalar va raqamli transformatsiyaning uyg'unlashuvi ta'lim tizimini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish, o'quvchilarning bilim olish samaradorligini oshirish va O'zbekiston ta'limining xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlashning muhim shartlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi. Toshkent, 2020.
2. UNESCO. Digital Education Report. Paris, 2024.
3. OECD. Innovative Pedagogy and Digital Learning. Paris, 2023.
4. Siemens G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age. International Journal of Instructional Technology, 2024.
5. Sheraliyev S.K. Gamifikatsiya va ta'lim. Zenodo, 2026.
6. Axmedova N.F., Samandarova Sh.M., Mamatqulova D.F. Formation of Psychology and Pedagogy as Interdisciplinary Sciences. Italy, 2025.
7. Mamatqulova D.F. Innovative Developments and Research in Education. International Scientific-Online Conference. Canada, 2025.
8. Pulatova D., Mamatqulova D.F. Prospects for Innovative Technologies in Science and Education. International Online Conference. Germany, 2026.
9. Rustamov A.B., Mamatqulova D.F. International Journal of Science Scientific Bulletin. ISSN: 306-4583, Volume 4, Issue 1, 2025.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.